

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“ MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIXASI BO'YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Diplom loyixasining mavzusi: “Irmash-rivoj” MCHJ sharoitlarida “Gilza” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta'minot vositalari konstruksiyalarini ishlab chiqish.

Yo'nalish: Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jixozlash va avtomatlashtirish

4-kurs 028-13 guruh talabasi:	S.Muxammadjonov
Kafedra mudiri:	X.Akbarov
Rahbar:	A.Kayumov
Maslaxatchilar:	
Texnologik qismi:	A.Kayumov
Konstruktorlik qismi:	A.Kayumov
Xayot faoliyati xavfsizligi qismi:	A.Raximov
Iqtisodiy qismi:	M.Muxtorov

Andijon – 2017 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIXASINI BAJARISH BO'YICHA

T O P S H I R I Q

Muxammadjonov Sultonbek Muhitdin o'g'li

1. Diplom loyixasining mavzusi: “Irmash-rivoj” MCHJ sharoitlarida “Gilza” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta'minot vositalari konstruksiyalarini ishlab chiqish. .

Institut bo'yicha 2016 yil 28-dekabrda 188-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyixasini bajarish uchun ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, qarorlari, farmoyishlari, VM qarorlari, ilmiy-texnik adabiyotlar, internet ma'lumotlari, detal ishchi chizmasi, ishlab chiqarish xajmi.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

1) Kirish. O'zbekistonning rivojlanishda mashinasozlik sanoatining roli ahamiyati, qaror va farmonlar, diplom loyixasining maqsad va vazifalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

2) Umumiy qism. Detalning xizmat vazifasi, ishlab chiqarish turini aniqlash va boshqalar.

3) Texnologik qism. Zagatovka olish turini tanlash, texnologik jarayon marshuritini ishlab chiqish, detal konstruksiyasini texnologiklikka taxlili, zagatovkaga ishlov berishda qo'yim xisobi, kesish maromlarini xisoblash, vaqt me'yorini xisoblash.

4) Konstruktorlik qismi. Dastgox moslamasi, kesuvchi asbob va o'lchov vositalarini bayon va xisoblari.

5) Xayot faoliyati xavfsizligi qismi. Loyihalanayotgan ishchi joyini mehnat sharoitlarining ta'rifi, ishlab chiqarish joyida yoritish tizimini tanlash, ventilatsiya tizimini tanlash, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, aloqa yong'in signalizatsiya tizimi va boshqalar, mehnat xavfsizligi bo'yicha barcha talablar va qonun qoidalar.

6) Iqtisodiy qism. Texnologik jarayonning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

7) Xulosa. Bajarilgan diplom loyixasi bo'yicha xulosalar va takliflar yoritiladi.

8) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Bajarilgan diplom loyixasi bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .

9) Ilovalar. Spetsifikatsiyalar va texnologik jarayon xujjatlari.

4. Diplom loyiasining chizmalari ro'yhati:

1. Detalm chizmasi
2. Zagotovka chizmasi.
3. Texnologik sozlash kartalari.
4. Moslama chizmasi.
5. Kesuvchi asbob chizmasi.
6. O'lchov vositasi yoki uchastka plani.

5. Diplom loyixasi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyixasining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi va ismi
1	Texnologik qism	25.03.17	20.04.17		A.Kayumov
2	Konstruktorlik qismi	25.04.17	20.05.17		A.Kayumov
3	Xayot faoliyati xavfsizligi qismi	20.05.17	1.06.17		A.Raximov
4	Iqtisodiy qism	1.06.17	10.06.17		M.Muxtorov

6. Topshiriq berilgan sana :**11.01.2017****7. Diplom loyixasini topshirish sanasi:****12.06.2017****Rahbar:**

A.Kayumov

(imzo)**Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi**

S.Muxammadjonov

(imzo)**Kafedra mudiri**

X.Akbarov

(imzo)

Mundarija

Kirish.....	5
2. Umumiy qism.....	7
2.1. Detalning xizmat vazifasi.....	7
2.2. Detal tuzilishining texnologiklikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari	9
2.3. Ishlab chiqarish turini aniqlash	8
3. Texnologik qism.....	12
3.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash.	12
3.2. Detal yuzalariga mexanik ishlov berish rejasini tuzish	13
3.3. Tanlangan texnologik jarayonni asoslash.....	
3.4. Ikkita turli ko'rinishdagi yuzalarga mexanik ishlov berish uchun qoldirilgan qo'yimlarni analitik hisobi.	15
3.4. Jadval usuli bilan mexanik ishlov berish uchun qoldirilgan qo'yimlarni analitik hisobi.....	
3.6. Ikkita turli ko'rinishdagi yuzalarga kesish maromini qisqa analitik usul bilan hisoblash va asosiy vaqtni aniqlash	20
3.7. Kesish maromini jadvaliy usul bilan hisoblash va asosiy vaqtni aniqlash.....	
3.8. Sarflangan texnik vaqt me'yorini aniqlash.....	49
3.9. Texnologik jarayon hujjatlari	
4.1. Dastgox moslamasi loyihalash va xisoblash.	58
4.2. Avtomatlashtirish qurilmasining hisoblash va loyihalan	
4.3. Kesuvchi asbobni hisoblash va loyihalash	59
5. Tashkillash bo'limi.....	
6. Iqtisodiy bo'limi.....	68
7. Xorijiy investitsiyalar bo'limi	
8. Mexnatni muhofaza qilish bo'limi.	62
9. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	74
10. Spetsifikatsiya	
11. Ilova (ikkita o'tish uchun kesish maromini kompyuter dasturi yordamida hisobi).....	
12. Internetdan olingan ma'lumotlar	

Kirish

Iqtisodiyotimiz yaqin yillar ichida yanada barqaror, o'ziga baquvvat, jahon va mintaqaviy bozorlarda raqobatdosh bo'lmog'i uchun itisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha hali ko'p ish qilish lozimligini, bu o'rinda, mamlakatimiz va mintaqamizdagi mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda, avtomobilsozlik, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va albatta, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlarini jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat berish, yaqin kelajakda raqamli va keng formatli televideniyasiga o'tish zarur.

Sanoatning turli tarmoqlarini mashinasozlik yangi texnika va ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlab, barcha sohalarini rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora tadbirlar quyidagilarni hal qilishga qaratilgan: korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslanuvchan texnologiyalarni keng joriy etish; qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish.

Zamonaviy va raqobatdosh mashinalarga yuqori aniqlik va tezlik, issiqlikka chidamlilik, kichik vazin va hajm, mustahkamlik va ishonchlik kabi yuqori talablar qo'yilgan. Bunday talablarni oshib borishi mashinasozlar oldiga murakkab konstruktorlik va texnologik savollarni qisqa vaqt ichida echish masalasini qo'ymoqda. SHu sababli mashinasozlik texnologiyasi, ishlab chiqarish dasturiga asosan belgilangan muddat ichida talab etilgan sifat darajasida mehnat hamda moddiy resurslarni kam sarflagan holda mashina va mexanizmlar tayyorlash qonuniyatlarini o'rgatadi.

YUqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, engil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarini yuksak darajada rivojlantirish oldimizga qo'yilgan maqsadlarga

erishishning asosiy manbai bo'lishi darkor. O'tgan yil yakunlari bo'yicha ta'kidlash kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirmoqda, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati maxalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni taminlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyixalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

1. Umumiy qism

1.1. Detalning xizmat vazifasi

“Gilza” detali po‘lat 40X GOST 4543-71 dan tayyorlanadi. Ushbu emirilishga bardoshlik qattiq sirtli gilza etarlicha mutsahkam va qayishqoq o‘zakda, katta tezlikda va o‘rtacha nisbiy bosim ostida ishlaydi.

O‘lchamlar aniqligini ta‘minlash uchun oxirgi operatsiyada jilvirlash kabi ishlov berishdan foydalanish zarur.

Materialning termik ishlov berilgungacha va undan keyingi fizik va mexanik xossalarini quyidagi jadvalda keltiramiz.

1-jadval.

Po‘lat 40X GOST 4543-71 ning kimyoviy tarkibi

Tarkibdagi elementlar ulushi, %							
S	Si	Mn	S	Ni	P	Cr	Cu
0,36-0,44	0,17-0,37	0,5-0,8	0,035 gacha	3 gacha	0,035 gacha	0,8-1,1	0,3 gacha

2-jadval.

Po‘lat 40X GOST 4543-71 ning fizik-mexanik tarkibi

Material markasi	σ_b , MPa	σ_v , MPa	δ , %	ψ , %	a_n , MPa	NV Issiq prokatlangan	NV
Po‘lat 40X	780	980	10	45	59	217	197

Po‘lat tarkibida uglerod va bir qator doimiy yoki o‘zgarmas aralashmalardan: Mn, Si, S, R, O, N, N va b.lardan tashkil topgan ko‘p tarkibli qotishma hisoblanadi. Ushbu aralashmalarning mavjudligi, shixta-legirlangan mexanik lomdan (Cr, Ni va b.) yoki bo‘kish (Mn, Si) jarayonida po‘latga o‘tishida, erish jarayonida (R, S) ularni

chiqarib tashlashning qiyinligi bilan izohlanadi. Ushbu aralashmalar oz miqdorda cho‘yan tarkibida ham mavjud bo‘ladi.

1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash

Har bir mashinasozlik korxonasi bir yil davomida ishlab chiqarishga kerak bo‘lgan mahsulot va zaxira qismlarining ma’lumotiga ega. Bu ma’lumot ishlab chiqarish dasturi deb ataladi va unda ma’lumotni turi, soni, o‘lchami va materiali to‘g‘risida ham etarlicha axborot bor. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish dasturiga asosan sexlar bo‘yicha ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Har bir mahsulot umumiy ko‘rinishining chizmasi, detallarning ishchi chizmasi, yig‘uv chizma, spetsifikatsiyalar va texnik talablar bilan boyitiladi.

Ishlab chiqarish dasturining xajmi, mahsulot tasnifi, jarayonning texnik va iqtisodiy shartlariga asosan shartli ravishda uchta ishlab chiqarish turi mavjud: donali, seriyali, yalpi. Har bir ishlab chiqarish turi o‘ziga xos tashkiliy shaklga ega. SHuni aytish kerakki, bitta korxonada xar-hil ishlab chiqarish turlari bo‘lishi mumkin.

Ishlab chiqarish turi va unga to‘g‘ri keladigan ishni tashkil qilish shakli texnologik jarayonni tasnifini hamda uning tuzilishini aniqlaydi. SHuning uchun ham ishlab chiqarish turini aniqlash detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayonni loyixalashni boshlang‘ich asosiy bosqichidir. Ishlab chiqarish turini jadvallar usuli bilan aniqlaganda detalning og‘irligi va yillik ishlab chiqarish dasturi talab qilinadi.

Bunda $N=5000$ dona va $q=2,2$ kg bo‘lganda ([10],2j,18b) ishlab chiqarish turi o‘rta seriyali deb aytishimiz mumkin.

Berilgan yillik dasturga asosan ishlab chiqarish qadamini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi.

$$t_b = \frac{F_g \cdot 60}{N} = \frac{4029 \cdot 60}{5000} = 48 \frac{\partial \text{ak}}{\partial \text{она}}$$

bu erda: $F_g = 4029 \text{ coam}$ – dastgohlarni bir yillik haqiqiy ishlash vaqti fondi; $N=5000$ dona – yillik ishlab chiqarish dasturi.

Bo'limdagi ish tartibi 2 smenali. Seriyali ishlab chiqarish turida detallarni partiyalarga bo'lib ishlov berish sababli partiyadagi detallar sonini hisoblab topish talab qilinadi.

$$n = \frac{N \cdot a}{F} = \frac{5000 \cdot 6}{254} = 118 \text{ dona}$$

bu erda: $a=3,6,12,24$ kun – partiyadagi detallarni ishlov berishga kiritilish davri; $F=254$ kun – bir yildagi ishchi kunlar soni.

1.3. Detal tuzilishining texnologiklikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish ob'ekti bo'lgan mahsulot konstruksiyasini texnologikligi quyidagi nuqtai nazarlar bo'yicha taxlil qilinadi. Qo'llaniladigan materialning ko'rinishi va turi xom–ashyoni ko'rinishi va tayyorlash uslublari.

Qo'llaniladigan ishlov berish yig'ish tayyorlash korxonasidan tashqarida montaj qilish va sinashni texnologik usullari va ko'rinishlari progressiv texnologik jarayonlar shuningdek kam mehnat va energiya sarflanadigan, chiqindisiz tipaviy texnologik jarayonlardan foydalanganlik darajasi jarayonlarni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish imkoniyati, unifikatsiyalangan yig'ish birikmalari va detallarni fo'llash darajasi. Tayyorlovchi korxonani o'ziga xos xususiyatlari talab qilingan ishchilar klafikatsiyalari.

Detalning ishchi chizmasini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki detalni ishchi vazifasini o'zgartirmagan holda uni tuzilishi elementlarini qisqartirish imkoniyati yo'q. Detal tuzilishi xom–ashyo olishni ratsional usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ishlov berishda qiyinchilik tug'diradigan va maqsadga muvofiq bo'lmagan yuzalar aniqlanadi. Zagotovka tuzilishi va mustaxkamligi va uni unumdorligini yuqori bo'lgan ishlov berish usullaridan foydalanishni chegaralanmaydi. Materialni ishlov beriluvchanligi lezviyali va obraziv asboblardan foydalanishga imkon beradi. Texnologiklik va aniqlik bo'yicha taxlil texnologik jarayon marshrutini tuzish dastgohlarni nazorat ishlarini aniqlashga negiz bo'lib qoladi.

Detal konstruksiyasini texnologikligi — konstruksiyasini shunday xossalari yig'indisiki bunda bir xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bir xil sharoitda

tayyorlangan va ekspluatatsiya qilinadigan o'xshash konstruksiyasiga ega bo'lgan maxsulotga nisbatan yanada samarador texnologiyalar bilan ishlov berish ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Detalni texnologilikka taxlil qilish ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni muxim masalasidir.

Loyixalanayotgan detalni chizmasini taxlili shuni ko'rsatadiki detalni ishchi vazifasini o'zgartirmagan holda uni tuzilishi elementlarini qisqartirish imkoni yo'q. Ishlov berishda qiyinchilik tug'diradigan va maqsadga muvofiq bo'lmagan yuzalar aniqlanadi.

Bajarilgan taxlil quyidagi koeffitsentlarni aniqlashga imkon beradi.

1. Konstruktiv elementlarni unifikatsiyasini koeffitsenti.

$$K_{y.e} = \frac{Q_{y.e}}{Q_e}$$

bu erda:

$Q_{y.e}$ va Q_e unifikatsiyalangan konstruktiv elementlar soni va detalni hamma elementlar soni

$$K_{y.e} = \frac{Q_{y.e}}{Q_e} = \frac{8}{13} = 0,61$$

2. Materiallardan foydalanish koeffitsenti.

$$KIM = \frac{q}{Q}$$

bu erda:

q —detal og'irligi,

$$q = V \times \gamma$$

Bu erda; V -detalni xajmi;

γ -materialning zichligi;

$$\gamma = 7.8g/sm^3$$

$$V = \frac{\pi D_1^2}{4} \cdot l_1 + \frac{\pi D_2^2}{4} l_2 + \frac{\pi D_3^2}{4} l_3 + \frac{\pi D_4^2}{4} l_4 + \frac{\pi D_5^2}{4} l_5 = \frac{3.14 \cdot 25^2}{4} \cdot 14,5 + \frac{3.14 \cdot 34^2}{4} \cdot 17,5 + \frac{3.14 \cdot 25^2}{4} \cdot 36,5 + \frac{3.14 \cdot 17^2}{4} 15 + \frac{3.14 \cdot 24,5^2}{4} 6 = \frac{3.14}{4} (13328 + 4332 + 61440 + 24300 + 41250) = 279891 \text{ mm}^3$$

$$q = 279.89 \cdot 7.86 = 2200 \text{ g} = 2.2 \text{ kg} \quad Q \text{—zagotovka og'irligi,}$$

$$Q = q \cdot 1,2 = 2.2 \cdot 1.2 = 2.6 \text{ kg}$$

$$K_M = \frac{q}{Q} = \frac{2.2}{2.6} = 0.84$$

3. Ishlov berish aniqligi koefitsienti.

$$K_{m.o} = 1 - \frac{1}{A_{yp}}$$

$$\text{bu erda: } A_{yp} = \frac{1n_1 + 2n_2 + 3n_3 + \dots + 19n_{19}}{\sum_{i=1}^{19} n_i} = \frac{3 \cdot 6 + 2 \cdot 9 + 5 \cdot 12}{10} = 9.0$$

$$K_{m.o} = 1 - \frac{1}{A_{yp}} = 1 - \frac{1}{9.0} = 1 - 0.1 = 0.9$$

4. YUzalar g'adir–budurlik koefitsienti.

$$K_M = \frac{1}{B_{ep}}$$

bu erda:

$$B_{ep} = \frac{0.01n_1 + 0.02n_2 + \dots + 40n_{13} + 80n_{14}}{\sum_{i=1}^{14} n_i} = \frac{1.25 \cdot 2 + 2 \cdot 2.5 + 4 \cdot 40}{8} = 20,9$$

$$K_M = \frac{1}{B_{ep}} = \frac{1}{20,9} = 0.5$$

Bajarilgan taxlil yig'uv birikmaning berilgan detalni to'g'ri loyixalashga imkon beradi.

2. Texnologik qism.

2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash.

Mashina detallarni ishlab chiqarish uchun xom-ashyo quyidagi materiallardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Cho'yan, po'lat, rangli metall va plastmassalardan tayyorlangan quymalar.
2. Bolg'alangan va shtamplangan xom-ashyo :
3. Po'latdan sovutilagan va qizdirilgan xollarda tayyorlangan prokatlar va rangli metall - prokatlar.

Xom-ashyoning turi ishlash shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

SHakldor detallar ishlash jarayonida cho'zilish va egilish tasirida bo'lmasada, odatda cho'yanlardan tayyorlanadi.

Bolg'alash yordamida egilish, cho'zilish buralishga ishlovchi va ko'ndalang kesimi bo'yicha o'lchamlardan farq bo'lgan detallarning xom-ashyolari tayyorlanadi. Bolg'alash bilan katta o'lchamli detallar uchun donali va kichik seriyali ishlab chiqarish sharoitida yoki boshqa xollarda kichik detallar uchun xom-ashyo tayyorlanadi.

SHTamplangan xom-ashyo shtamplash mashinalarda olinadi. SHTamplanagan metallning strukturasi bir xilligi bilan ajiralib turadi. SHTamplangan xom-ashyoning shakli detall shakliga juda yaqin bo'lib, ayrim xollarda mexanik ishlov berilmaydi. Bu o'z navbatida metall sarfini kamaytiradi. SHTamplash jarayonining ish unumdorligi bolg'alashga nisbatan ancha yuqori. SHTamplash yo'li bilan seriyali ishlab chiqarish sharoitlarida qo'l keladi.

Aylana, kvadrat, olti burchakli prokatlardan tayyorlangan xom-ashyo o'z shakli bo'yicha yuqoridagi ko'rinishlarga yaqin bo'lgan detallar tayyorlashda qo'llaniladi.

Qaysi turdagi xom-ashyoni tanlash uni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblab chiqilgandan so'ng amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zagotovkani olishni mavjud usullarini taxlil qilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovkani optimal tayyorlash usuli prokat.

2.2. Detal yuzalariga mexanik ishlov berish rejasini tuzish

Mexanik ishlov berish texnologik jarayonlarini loyixalash uchun xar bir detalning yillik ishlab chiqarish dasturi asos bo'ladi. Xuddi shuningdek detalning ishchi chizmasi uni tayyorlash bo'yicha texnik shartlari dastlabki ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Operatsiyalarni bajarish tartibini belgilashda birinchi bo'lib qolgan yuzalarga ishlov berishda baza bo'lib xizmat qiladigan yuzaga ishlov beriladi. SHu aytib o'tilgan fikrlar asosida ishlov berish rejasini tuzamiz.

3-jadval

Operatsiya №	O'tish №	Operatsiya nomi va o'tishlar mazmuni	Bazalash yuzalari	Maxkam - lash yuzalari	Dastgoh nomi va turi
1	2	3	4	5	6
005		Tokarlik	A	G	16K20 Tokarlik vitqirqish
	1	I torets yuza L=185mm saqlanib kesilsin.			
	2	E yuza ø50mm saqlanib, L=30mm o'lchamda qora yo'nilsin			
	3	B yuza ø62mm saqlanib, L=70mm o'lchamda yo'nilsin			
010	4	E yuzadagi L ariqcha ø47.5mm saqlanib, L=3mm o'lchamda yo'nilsin	I	E	16K20 Tokarlik vitqirqish
	1	Tokarlik A torets yuza L=180mm saqlanib kesilsin.			

015	2	G yuza ø50mm saqlanib, L=60mm qora yo‘nilsin	A	G	16K20 Tokarlik vitqirqish
	3	G yuzadagi V ariqcha ø47,5mm saqlanib, L=3mm gacha qora yo‘nilsin Tokarlik A-o‘rnatish			
	1	E yuza Ø48.2 mm saqlanib, L=47mm toza yo‘nilsin.			
	2	B yuza ø60.2mm saqlanib, L=70mm toza yo‘nilsin B-o‘rnatish			
	3	G yuzada ø48.2mm saqlanib, L=57mm gacha toza yo‘nilsin Yo‘nib kengaytirish A-o‘rnatish			
	1	J yuza Ø38mm saqlanib, L=62.5 mm qora yo‘nib kengaytirilchin.			
020	2	M yuza 41mm saqlanib L=64mm uzunlikda yo‘nib kengaytirish. B-o‘rnatish	A	G	16K20 Tokarlik vitqirqish
	3	D yuza Ø38mm saqlanib L=63mm yo‘nib kengaytirish. S-o‘rnatish			
	4	J yuza Ø39.8mm saqlanib L=53mm yo‘nib kengaytirilsin. D-o‘rnatish			

025	5	D yuza Ø39.8mm saqlanib L=63mm yo‘nib kengaytirilsin.	A	G; E	6M82 vertikal frezalash
	1	Frezalash B yuzadagi K ariqcha 19x8x45mm saqlanib, frezalansin.			
030	1	Tish ochish B yuzadagi 6 ta shlitsa ochilsin.	I	J; D	6T82G gorizontal frezalash
	1	Jilvirlash A-o‘rnatish E yuza Ø48mm saqlanib L=47mm jilvirlansin.			
035	1	J yuza Ø40 $\left(\begin{smallmatrix} +0.3 \\ +0.1 \end{smallmatrix}\right)$ mm saqlanib L=53mm yo‘nib kengaytirilsin.	A	G	3M131 doiraviy jilvirlash
	2	B-o‘rnatish G yuza Ø48mm saqlanib L=60mm jilvirlansin.			
	3	D yuza Ø40mm saqlanib L=63mm jilvirlansin.			
	4	Tish jilvirlash B yuzadagi b dona shlitsalar jilvirlansin.			
040	1		A	J; D	5V830 tish jilvirlash yarimavtoma t

2.3. Mexanik ishlov berish uchun qoldirilgan qo‘yimlarni hisoblash.

E yuza uchun qo‘yim miqdorini aniqlaymiz. E yuza tashqi aylanma yuza bo‘lib, diametri Ø50 mm. A yuzaga L=50 mm uzunlikda qora yo‘nib ishlov beriladi.

Aylanuvchi tashqi yuzalarga ishlov berishda qo'yimlarni aniqlash quyidagi formula yordamida topiladi ([3], 62 b.):

$$2z_{i_{min}} = 2(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon_i^2}),$$

Zagotovka uchun profilning notekisliklari balandligi R va sirt qatlamdagi nuqsonlar chuqurligini T jadvaldan olamiz:

1) *zagotovka uchun*: $R=160$ mkm; $T=200$ mkm ([4], 186 b.);

2) *qora yo'nish uchun*: $R=50$ mkm; $T=50$ mkm ([4], 188 b.);

Dopusklar miqdori ([4], 192 b.):

- zagotovka uchun $\delta=320$ mkm;
- qora yo'nish uchun $\delta=210$ mkm;

Fazoviy chetlanishlarning umumiy yig'indisi sortli prokatlar uchun quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\rho_3 = \sqrt{\rho_{cm}^2 + \rho_{kop}^2 + \rho_u^2};$$

$$\rho_{cm} = 0,25 \text{ mm} ([4], 187 \text{ b.});$$

$$\rho_{kop} = \Delta_{kop} d = 0,5 \cdot 50 = 25 \text{ mkm} ([4], 187 \text{ b.});$$

$$\rho_u = \sqrt{\left(\frac{0,320}{2}\right)^2 + 0,25^2} = 0,406 \text{ mm}.$$

$$\rho_3 = \sqrt{0,25^2 + 0,39^2 + 0,406^2} = 0,615 \text{ mm}$$

Qoldiq fazoviy chetlanishlar:

- qora yo'nishdan so'ng $\rho_1=0,06 \cdot 615=36.9$ mkm.

Zagotovkani o'rnatishdagi xatoliklar quyidagicha topiladi:

$$\varepsilon_{\bar{y}} = \sqrt{\varepsilon_b^2 + \varepsilon_m^2 + \varepsilon_x^2},$$

bu erda, ε_b – bazalashdagi xatolik; ε_m – mustahkamlashdagi xatolik, $\varepsilon_m=80$ [3, 78 b.];
 ε_x – zagotovkani moslamada joylashishidagi xatolik.

Qora yo'nishda o'rnatish xatoligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon_{\bar{y}} = \sqrt{\varepsilon_b^2 + \varepsilon_m^2} = \sqrt{10^2 + 80^2} = 81 \text{ mkm},$$

$$\varepsilon_b = l \cdot \tan \alpha = 380 \cdot 0,0004 = 0,152 \text{ mm}$$

Qo'yimlarning minimal miqdorini hisoblaymiz:

$$- \text{ qora yo'nish } 2z_{\min_1} = 2(160 + 200 + \sqrt{615^2 + 380^2}) = 2 \cdot 844 \text{ mkm};$$

4-jadval

Texnologik ishlov berish	Qo'yim elementlari				$2z_{\min}$	d_h , mm	Dopusk δ , mkm	CHegaraviy o'lcham, mm		Qo'yimlar chegarasi, mkm	
	R_z	T	ρ	ε				$d_{\min}$	$d_{\max}$	$2z_{\min}^q$	$2z_{\max}^q$
prokat	160	200	615			50,1	520	50,052	52,572		
Qora yo'nish	50	50	29	81	2·844	50,4	210	50,364	50,574	1688	1998

Quyimlarning eng katta va eng kichik qiymatlari yig'indisini aniqlaymiz:

$$z_{ym.min}^q = 2085 \text{ mkm.}$$

$$z_{ym.max}^q = 2572 \text{ mkm.}$$

Xisoblar to'g'riligini tekshiramiz.

$$z_{ym.min}^q - z_{ym.max}^q = \delta_z - \delta_d$$

$$2572 - 2085 = 520 - 33$$

$$487 = 487$$

Hisob to'g'ri bajarilgan.

Tokarlik. A yuza uchun qo'yim miqdorini aniqlaymiz. E yuza tashqi aylanma yuza bo'lib, diametri $\varnothing 62$ mm. A yuzaga $L=70$ mm uzunlikda qora yo'nib ishlov beriladi.

Aylanuvchi tashqi yuzalarga ishlov berishda qo'yimlarni aniqlash quyidagi formula yordamida topiladi ([3], 62 b.):

$$2z_{i\min} = 2(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon_i^2}),$$

Zagotovka uchun profilning notekisliklari balandligi R va sirt qatlamdagi nuqsonlar chuqurligini T jadvaldan olamiz:

3) *zagotovka uchun*: $R=160$ mkm; $T=200$ mkm ([4], 186 b.);

4) qora yoʻnish uchun: $R=50$ mkm; $T=50$ mkm ([4], 188 b.);

Dopusklar miqdori ([4], 192 b.);:

- zagotovka uchun $\delta=320$ mkm;
- qora yoʻnish uchun $\delta=210$ mkm;

Fazoviy chetlanishlarning umumiy yigʻindisi sortli prokatlar uchun quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\rho_3 = \sqrt{\rho_{cm}^2 + \rho_{kop}^2 + \rho_u^2};$$

$$\rho_{cm} = 0,25 \text{ mm} ([4], 187 \text{ b.});$$

$$\rho_{kop} = \Delta_{kop} d = 0,5 \cdot 62 = 31 \text{ mkm} ([4], 187 \text{ b.});$$

$$\rho_u = \sqrt{\left(\frac{0,320}{2}\right)^2 + 0,25^2} = 0,406 \text{ mm}.$$

$$\rho_3 = \sqrt{0,25^2 + 0,39^2 + 0,406^2} = 0,615 \text{ mm}$$

Qoldiq fazoviy chetlanishlar:

- qora yoʻnishdan soʻng $\rho_1=0,06 \cdot 615=36.9$ mkm.

Zagotovkani oʻrnatishdagi xatoliklar quyidagicha topiladi:

$$\varepsilon_{\bar{y}} = \sqrt{\varepsilon_b^2 + \varepsilon_m^2 + \varepsilon_x^2},$$

bu erda, ε_b – bazalashdagi xatolik; ε_m – mustahkamlashdagi xatolik, $\varepsilon_m=80$ [3, 78 b.];
 ε_x – zagotovkani moslamada joylashishidagi xatolik.

Qora yoʻnishda oʻrnatish xatoligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon_{\bar{y}} = \sqrt{\varepsilon_b^2 + \varepsilon_m^2} = \sqrt{10^2 + 80^2} = 81 \text{ mkm},$$

$$\varepsilon_b = l \cdot tg \alpha = 380 \cdot 0,0004 = 0,152 \text{ mm}$$

Qoʻyimlarning minimal miqdorini hisoblaymiz:

- qora yoʻnish $2z_{min_1} = 2(160 + 200 + \sqrt{615^2 + 380^2}) = 2 \cdot 844 \text{ mkm};$

5-jadval

Texnologik ishlov berish	Qo'yim elementlari				$2z_{min}$	d_h , mm	Dopusk δ , mkm	CHegaraviy o'lcham, mm		Qo'yimlar chegarasi, mkm	
	R_z	T	ρ	ε				d_{min}	d_{max}	$2z_{min}^q$	$2z_{max}^q$
prokat	160	200	615			62,1	520	62,052	64,572		
Qora yo'nish	50	50	29	81	2·844	62,4	210	62,364	62,574	1688	1998

Quyimlarning eng katta va eng kichik qiymatlari yig'indisini aniqlaymiz:

$$z_{ym.min}^q = 2085 \text{ mkm.}$$

$$z_{ym.max}^q = 2572 \text{ mkm.}$$

Xisoblar to'g'riligini tekshiramiz.

$$z_{ym.min}^q - z_{ym.max}^q = \delta_z - \delta_d$$

$$2572 - 2085 = 520 - 33$$

$$487 = 487$$

Hisob to'g'ri bajarilgan.

Qabul qilingan zagotovka turi va texnologik marshrutga ko'ra qo'yim miqdorlari va ruxsat etilgan chetlanishlarni jadval usulida topamiz.

Qo'yim miqdorini aniqlash va chetlanishlarni belgilash GOST 7505-84.

6-jadval

YUza	Ulchamlar mm	Quyim 2Z, mm	Zagotovka ulchami, mm	Dopusk Td, mm	Holatdagi dopuska
1	2	3	4	5	6
M	41	5	64	4	+3; -1
A	48	3	24	4	+3; -1
G	48	3	24	4	+3; -1
J	38	3	62.5	4	+3; -1
D	38	2	63	4	+3; -1

2.4.Kesish maromini hisoblash va asosiy vaqtni aniqlash

005 -tokarlik operatsiyasi

1-o'tish uchun kesish maromlarini qisqa analitik usulda hisoblaymiz.

I-yuza Ø48 diametrli 24 mm uzunlikda kesilsin.

Hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar:

- dastgoh turi: 16K20;

- kesuvchi asbob: qattiq qotishmali T15K6 keskich. Kesuvchi asbob

parametrlari: plandagi asosiy burchak qiymati - 90°; - keskich uchi radiusi - 0,4 mm;

- ishlov beriladigan diametr, $d = \text{Ø}48 \text{ mm}$;

- ishlov beriladigan uzunlik, $l = 24 \text{ mm}$;

- kesish chuqurligi, $t = 2 \text{ mm}$;

- surish qiymati, $s = 0,9 \text{ mm/ayl}$ (spravochnikka asosan ([4], 268 b.);

- kesishning turunlik davri, $T = 60 \text{ daq}$.

1. Kesish tezligi quyidagi empirik formula yordamida aniqlanadi:

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot s^y} K_v,$$

bu erda,

$C_v = 340$ - kesish tezligini topish uchun koeffitsient, ([4], 269 b.); $x = 0,15$ -

kesish chuqurligi ko'rsatkich darajasi; $y = 0,43$ - uzatish ko'rsatkichi darajasi; $m = 60$

- kesuvchi asbobning turg'unlik davri ko'rsatkich darajasi; K_v - kesish tezligining to'g'rilash koeffitsienti, u quyidagi formula yordamida topiladi:

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{kv},$$

bu erda,

$K_{mv} = 1,62$ - ishlov berilayotgan materialning fizik-kimyoviy xususiyatlarining ta'siriga bog'liq koeffitsient, ([4], 262 b.);

$K_{pv} = 0,8$ - zagotovka yuzasiga bog'liq koeffitsient, ([4], 263 b.);

$K_{iv} = 1$ - kesuvchi asbobni kesish tezligiga ta'sirini hisobga olish koeffitsienti, ([4], 263 b.).

$$K_v = 1,62 \cdot 0,8 \cdot 1 = 1,296$$

2. U holda kesish tezligi quyidagiga teng:

$$v = \frac{340}{60^{0,2} \cdot 2^{0,15} \cdot 0,9^{0,43}} \cdot 1,296 = 175$$

3. SHpindelning aylanishlar soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 175}{3,14 \cdot 48} = 1161 \text{ дақ}^{-1},$$

bu erda, D - ishlov berilayotgan yuza diametri, mm.

4. Biz tanlagan dastgohning pasporti bo'yicha shpindelning aylanishlar sonini $n = 1000$ ayl/daq deb to'g'rilasak, u holda haqiqiy kesish tezligi quyidagicha topiladi:

$$v_{\phi} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 48 \cdot 1000}{1000} = 150 \text{ м/дақ}$$

5. Tangensial kesish kuchi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot s^y \cdot v^n \cdot K_p,$$

bu erda,

C_p va x, y, n - muayyan ishlov berish sharoiti uchun doimiy koeffitsient va daraja ko'rsatkichlari, bizning holat uchun: $C_p=300$, $x=1$, $y=0,75$, $n=-0,15$ ([4], 273 b.);

K_r - to'g'rilash koeffitsienti kesish sharoitidagi omillarga bog'liq bir qator koeffitsientlarning ko'paytmasiga teng:

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\phi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp},$$

bu erda,

K_{mr} - kuch bog'lanishini ishlov berilayotgan material sifatiga ta'sirini hisobga oluvchi to'g'rilash koeffitsienti, $K_{mr}=0,81$;

$K_{\phi r}=0,89$, $K_{\gamma r}=1$, $K_{\lambda r}=1$, $K_{rr}=0,87$.

$$K_p = 0,81 \cdot 0,89 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0,87 = 0,63.$$

U holda kesish kuchi quyidagiga teng:

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 2^1 \cdot 0,9^{0,75} \cdot 175^{-0,15} \cdot 0,63 = 1650 \text{ Н.}$$

6. Kesish quvvatini quyidagi formula orqali topamiz:

$$N_{\text{кес}} = \frac{P_z \cdot V_{\phi}}{1020 \cdot 60} = \frac{1650 \cdot 150}{1020 \cdot 60} = 4 \text{ кВт.}$$

Dastgohning maksimal quvvati $N_e = N \cdot \eta = 10 \cdot 0,75 = 7,5 \text{ кВт.}$

$N_{\text{кес}} < N_3$, $4 < 7,5$, ya'ni ishlov berish mumkin.

7. Asosiy texnologik vaqt quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T_0 = \frac{Li}{nS},$$

bu erda, L - uzatish harakatlanish traektoriyasi bo'yicha keskichning umumiy yo'li; i - ishchi xod soni.

Ishchi xod uzunligi quyidagicha topiladi:

$$L = l + l_1 + l_2,$$

bu erda, l - ishlov beriladigan yuza uzunligi, l = 24 mm; l₁ - kesish yo'li qiymati, mm, l₁=t ctg φ + l=2·0 + 1 = 1 mm; l₂ - keskichning ortiqcha yurgan yo'li, l₂ = 2 mm. L = 27 mm.

$$T_0 = \frac{Li}{nS} = \frac{27}{1000 \cdot 0,9} = 0,03 \text{ daq.}$$

2-o'tish uchun kesish maromlarini qisqa analitik usulda hisoblaymiz. Ushbu o'tishda Ø50 diametrli 50 mm uzunlikdagi silindrik yuzaga yo'nib, qora ishlov beriladi.

Hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar:

- dastgoh turi: 16K20;
- kesuvchi asbob: qattiq qotishmali T15K6 keskichi. Kesuvchi asbob parametrlari: plandagi asosiy burchak qiymati - 90°; - keskich uchi radiusi - 0,4 mm;
- ishlov beriladigan diametr, d = Ø50 mm;
- ishlov beriladigan uzunlik, l = 50 mm;
- kesish chuqurligi, t = 2 mm;
- surish qiymati, s = 0,9 mm/ayl (spravochnikka asosan [4, 268 b.]);
- kesishning turunlik davri, T = 60 daq.

1. Kesish tezligi quyidagi empirik formula yordamida aniqlanadi:

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot s^y} K_v,$$

bu erda,

C_v = 340 - kesish tezligini topish uchun koeffitsient, ([4], 269 b.); x = 0,15 - kesish chuqurligi ko'rsatkich darajasi; y = 0,43 - uzatish ko'rsatkichi darajasi; m = 60 - kesuvchi asbobning turg'unlik davri ko'rsatkich darajasi; K_v - kesish tezligining to'g'rilash koeffitsienti, u quyidagi formula yordamida topiladi:

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{pv} \cdot K_{iv},$$

bu erda,

$K_{mv} = 1,62$ - ishlov berilayotgan materialning fizik-kimyoviy xususiyatlarining ta'siriga bog'liq koeffitsient, ([4], 262 b.);

$K_{pv} = 0,8$ - zagotovka yuzasiga bog'liq koeffitsient, ([4], 263 b.);

$K_{iv} = 1$ - kesuvchi asbobni kesish tezligiga ta'sirini hisobga olish koeffitsienti, ([4], 263 b.).

$$K_v = 1,62 \cdot 0,8 \cdot 1 = 1,296$$

2. U holda kesish tezligi quyidagiga teng:

$$v = \frac{340}{60^{0,2} \cdot 2^{0,15} \cdot 0,9^{0,43}} \cdot 1,296 = 310$$

3. SHpindelning aylanishlar soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 310}{3,14 \cdot 50} = 1964 \text{ дақ}^{-1},$$

bu erda, D - ishlov berilayotgan yuza diametri, mm.

4. Biz tanlagan dastgohning pasporti bo'yicha shpindelning aylanishlar sonini $n = 1600$ ayl/daq deb to'g'rilasak, u holda haqiqiy kesish tezligi quyidagicha topiladi:

$$v_{\phi} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 50 \cdot 1600}{1000} = 251 \text{ м/дақ}$$

5. Tangensial kesish kuchi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot s^y \cdot v^n \cdot K_p,$$

bu erda,

C_p va x, y, n - muayyan ishlov berish sharoiti uchun doimiy koeffitsient va daraja ko'rsatkichlari, bizning holat uchun: $C_p=300$, $x=1$, $y=0,75$, $n=-0,15$ ([4], 273 b.);

K_r - to'g'rilash koeffitsienti kesish sharoitidagi omillarga bog'liq bir qator koeffitsientlarning ko'paytmasiga teng:

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\phi p} \cdot K_{yp} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp},$$

bu erda,

K_{mr} - kuch bog'lanishini ishlov berilayotgan material sifatiga ta'sirini hisobga oluvchi to'g'rilash koeffitsienti, $K_{mr}=0,81$;

$K_{\phi r}=0,89$, $K_{\gamma r}=1$, $K_{\lambda r}=1$, $K_{rr}=0,87$. ([5], 273 b.);

$$K_p = 0,81 \cdot 0,89 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0,87 = 0,63.$$

U holda kesish kuchi quyidagiga teng:

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 2^1 \cdot 0,9^{0,75} \cdot 310^{-0,15} \cdot 0,63 = 1718 \text{ H.}$$

6. Kesish quvvatini quyidagi formula orqali topamiz:

$$N_{\text{кес}} = \frac{P_z \cdot V_{\phi}}{1020 \cdot 60} = \frac{1718 \cdot 251}{1020 \cdot 60} = 7 \text{ кВт.}$$

Dastgohning maksimal quvvati $N_e = N \cdot \eta = 10 \cdot 0,75 = 7,5 \text{ кВт.}$

$$N_{\text{кес}} < N_e, 7 < 7,5, \text{ ya'ni ishlov berish mumkin.}$$

7. Asosiy texnologik vaqt quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T_0 = \frac{Li}{nS},$$

bu erda, L - uzatish harakatlanish traektoriyasi bo'yicha keskichning umumiy yo'li; i - ishchi xod soni.

Ishchi xod uzunligi quyidagicha topiladi:

$$L = l + l_1 + l_2,$$

bu erda, l - ishlov beriladigan yuza uzunligi, $l = 50 \text{ mm}$; l_1 - kesish yo'li qiymati, mm , $l_1 = t \cdot \text{ctg } \phi + 1 = 2 \cdot 0 + 1 = 1 \text{ mm}$; l_2 - keskichning ortiqcha yurgan yo'li, $l_2 = 2 \text{ mm}$. $L = 53 \text{ mm}$.

$$T_0 = \frac{Li}{nS} = \frac{53}{1600 \cdot 0,9} = 0,03 \text{ дақ.}$$

3-o'tish uchun kesish maromlarini hisoblaymiz. B yuza $\varnothing 62 \text{ mm}$ $L=70 \text{ mm}$ qora yo'nilsin.

Boshlang'ich ma'lumotlar:

kesuvchi asbob: T15K6 GOST 14952-75;

kesish chuqurligi: $t = 2 \text{ mm}$.

1. Supportning harakat yo'li uzunligini hisoblaymiz:

$$L_{p.x} = l_{\text{kes}} + y + L_{\text{кўш}} = 70 + 2 + 3 = 75 \text{ мм},$$

bu erda, lkes - kesish uzunligi, lkes=80 mm;

u - kesish nuqtasiga kelish va kesib o'tib ketish yo'li, y=2 mm ([5], 300 b.);

Lqo'sh - detalning konfiguratsiyasi ko'ra qo'shimcha harakatlanish yo'li, Lqo'sh=3 mm.

2. Surish qiymatini aniqlaymiz:

$$s_0 = 0,4 \frac{\text{мм}}{\text{айл}} ([5], 111 \text{ б.})$$

Tanlagan dastgohimizning pasportiga ko'ra haqiqiy surish qiymatini belgilaymiz:

$$s_0 = 0,5 \frac{\text{мм}}{\text{айл}}.$$

3. Normativ asosida kesuvchi asbobning turg'unlik davrini aniqlaymiz:

T = 60 daq. ([5], 114 b.).

4. Kesish tezligi hamda shpindelning aylanish sonini topamiz:

$$v = v_{\text{ж}} K_1 K_2 K_3 = 26 \cdot 1,3 \cdot 1,15 \cdot 1 = 38,87 \text{ м/дақ}$$

bu erda, vj - jadval bo'yicha kesish tezligi, vj = 26 m/daq. ([5], 115 b.);

K1 - ishlov berilayotgan materialga bog'liq koeffitsient, K1=1,3 ([5], 116 b.);

K2 - kesuvchi asbob turg'unligiga bog'liq koeffitsient, K2=1,15 ([5], 116 b.);

K3 - kesish uzunligini diametrga nisbati, K3=1 [5, 117 b.].

Tavsiya etiladigan shpindelning aylanishlar soni:

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 38,87}{3,14 \cdot 62} = 1600 \text{ дақ}^{-1},$$

Tanlagan dastgohimizga ko'ra aylanishlar sonini n=1600 1/daq. teng deb olamiz. U holda haqiqiy kesish tezligi:

$$v_x = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 62 \cdot 1600}{1000} = 311 \text{ м/дақ}$$

5. Asosiy vaqtni hisoblaymiz:

$$T_a = \frac{L_{p.x}}{n s_0} = \frac{75}{1600 \cdot 0,5} = 0,09 \text{ дақ}$$

6. Kesish quvvatini hisoblaymiz:

$$N_{\text{кес}} = N_{\text{жэд}} K_N \frac{n}{1000} = 10 \cdot 0,75 \frac{1600}{1000} = 1.2 \text{ кВт.}$$

bu erda, $N_{\text{жэд}}$ - jadval bo'yicha kesish quvvati, $N_{\text{жэд}}=10$ ([5], 127 b.);

K_N - ishlov berilayotgan materialga bog'liq koef., $K_N=0,75$ ([5], 128 b.).

Dastgohning maksimal quvvati $N_{\text{э}} = N \cdot \eta = 10 \cdot 0,8 = 8 \text{ кВт.}$

$N_{\text{кес}} < N_{\text{э}}, 1.2 < 8$, ya'ni ishlov berish mumkin.

4-o'tish uchun kesish maromlarini hisoblaymiz. Ø47.5 mm L=3 mm qora yo'nilsin

Boshlang'ich ma'lumotlar:

kesuvchi asbob: T15K6 GOST 18877-73;

kesish chuqurligi: $t = 2 \text{ mm.}$

1. Supportning harakat yo'li uzunligini hisoblaymiz:

$$L_{p.x} = l_{\text{кес}} + y + L_{\text{кўш}} = 3 + 2 + 3 = 8 \text{ мм,}$$

bu erda, $l_{\text{кес}}$ - kesish uzunligi, $l_{\text{кес}}=3 \text{ mm;}$

y - kesish nuqtasiga kelish va kesib o'tib ketish yo'li, $y=2 \text{ mm}$ ([5], 300 b.);

$L_{\text{қо'sh}}$ - detalning konfiguratsiyasi ko'ra qo'shimcha harakatlanish yo'li, $L_{\text{қо'sh}}=3 \text{ mm.}$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz:

$$s_0 = 0,28 \frac{\text{мм}}{\text{айл}} [5, 24 \text{ б}].$$

Tanlagan dastgohimizning pasportiga ko'ra haqiqiy surish qiymatini belgilaymiz:

$$s_0=0,25 \text{ мм/айл.}$$

3. Normativ asosida kesuvchi asbobning turg'unlik davrini aniqlaymiz:

$$T = 50 \text{ дақ.} ([5], 27 \text{ б.}).$$

4. Kesish tezligi hamda shpindelning aylanish sonini topamiz:

$$v = v_{\text{ж}} K_1 K_2 K_3 = 125 \cdot 0,9 \cdot 1,25 \cdot 0,85 = 119,53 \text{ м/дақ}$$

bu erda, $v_{\text{ж}}$ - jadval bo'yicha kesish tezligi, $v_{\text{ж}} = 125 \text{ m/дақ.}$ ([5], 29 b.);

K_1 - ishlov berilayotgan materialga bog'liq koefitsient, $K_1=0,9$ ([5], 32 b.);

K_2 - kesuvchi asbobga bog'liq koefitsient, $K_2=1,25$ ([5], 32 b.);

K_3 - ishlov berish turiga bog'liq koefitsient, $K_3=0,85$ ([5], 32 b.).

Tavsiya etiladigan shpindelning aylanishlar soni:

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 119,53}{3,14 \cdot 47,5} = 906 \text{ дақ}^{-1},$$

Tanlagan dastgohimizga ko'ra aylanishlar sonini $n=1000$ 1/daq. teng deb olamiz. U holda haqiqiy kesish tezligi:

$$v_x = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 47,5 \cdot 1000}{1000} = 149 \text{ м/дақ}$$

5. Asosiy vaqtni hisoblaymiz:

$$T_a = \frac{L_{p.x}}{n s_0} = \frac{8}{1000 \cdot 0,25} = 0,03 \text{ дақ}$$

6. Kesish kuchini hisoblaymiz:

$$P_z = P_{z(ж)} K_1 K_2 = 90 \cdot 0,85 \cdot 1,1 = 84,15 \text{ Н}$$

bu erda, P_z - jadval bo'yicha kesish kuchi, $P_z = 90$ N. ([5], 35 b.);

K_1 - ishlov berish turiga bog'liq koeffitsient, $K_1=0,85$ ([5], 36 b.);

K_2 - kesish tezligiga bog'liq koeffitsient, $K_2=1,1$ ([5], 36 b.).

7. Kesish quvvatini topamiz:

$$N_{\text{кес}} = \frac{P_z v_x}{60} = \frac{84,15 \cdot 149}{60} = 2 \text{ кВт}$$

Dastgohning maksimal quvvati $N_e = N \cdot \eta = 10 \cdot 0,8 = 8 \text{ кВт}$.

$N_{\text{кес}} < N_3, 2 < 8$, ya'ni ishlov berish mumkin.

010 tokarlik operatsiyasi

1-o'tish uchun kesish maromlarini qisqa analitik usulda hisoblaymiz.

Ø48mm L=24 mm.

Hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar:

- dastgoh turi: 16K20;

- kesuvchi asbob: qattiq qotishmali T15K6 keskich. Kesuvchi asbob

parametrlari: plandagi asosiy burchak qiymati - 90° ; - keskich uchi radiusi - 0,4 mm;

- ishlov beriladigan diametr, $d = \text{Ø}42$ mm;

- ishlov beriladigan uzunlik, $l = 81$ mm;

- kesish chuqurligi, $t = 2 \text{ mm}$;
- surish qiymati, $s = 0,09 \text{ mm/ayl}$ (spravochnikka asosan ([4], 268 b.);
- kesishning turunlik davri, $T = 60 \text{ daq}$.

1. Kesish tezligi quyidagi empirik formula yordamida aniqlanadi:

$$v = \frac{C_v}{T^{m \cdot t^x \cdot s^y}} K_v,$$

bu erda,

$C_v = 340$ - kesish tezligini topish uchun koeffitsient, ([4], 269 b.); $x = 0,15$ - kesish chuqurligi ko'rsatkich darajasi; $y = 0,43$ - uzatish ko'rsatkichi darajasi; $m = 60$ - kesuvchi asbobning turg'unlik davri ko'rsatkich darajasi; K_v - kesish tezligining to'g'rilash koeffitsienti, u quyidagi formula yordamida topiladi:

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv},$$

bu erda,

$K_{mv} = 1,62$ - ishlov berilayotgan materialning fizik-kimyoviy xususiyatlarining ta'siriga bog'liq koeffitsient, ([4], 262 b.);

$K_{pv} = 0,8$ - zagotovka yuzasiga bog'liq koeffitsient, ([4], 263 b.);

$K_{iv} = 1$ - kesuvchi asbobni kesish tezligiga ta'sirini hisobga olish koeffitsienti, ([4], 263 b.).

$$K_v = 1,62 \cdot 0,8 \cdot 1 = 1,296$$

2. U holda kesish tezligi quyidagiga teng:

$$v = \frac{340}{60^{0,2} \cdot 2^{0,15} \cdot 0,9^{0,43}} \cdot 1,296 = 183$$

3. SHpindelning aylanishlar soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 183}{3,14 \cdot 48} = 1214 \text{ daq}^{-1},$$

